



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT HAJMI DINAMIKASI KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH

PhD Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi kadrlar malakasini oshirish
va statistik tadqiqotlar instituti
ORCID: 0009-0006-7895-2978
abdujalilovab97@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda, tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlarining tahlili va yig'ilgan ma'lumotlar asosida Respublikamizning 2010-2023-yillardagi eksport hajmi dinamikasini baholandi. Dinamika qatorlarini tahlil qilishda qo'llaniladigan: mutlaq o'sish yoki kamayish, o'sish yoki kamayish sur'ati; qo'shimcha o'sish yoki kamayish sur'ati bir foizli qo'shimcha o'sish yoki kamayishni mutlaq qiymatining statistik tahlil ko'rsatkichlaridan foydalandi. Eksport dinamika qatorlarini muntazam ravishda tahlil qilish zarurati kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: eksport hajmi dinamikasi, eksport tarkibi, xalqaro iqtisodiy aloqalar mutlaq qo'shimcha o'sish yoki kamayish, o'sish yoki kamayish koeffitsiyenti yoki sur'ati.

ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДИНАМИКИ ОБЪЕМА ЭКСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

PhD Абдужалилова Бибисора Баходир кизи
Института подготовки кадров и статистических
исследований Агентства по статистике
при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В данном исследовании на основе анализа показателей внешнеэкономической деятельности и собранных данных оценена динамика объемов экспорта нашей Республики в 2010-2023 годах. При анализе динамики используются ряды: абсолютное увеличение или уменьшение, скорость увеличения или уменьшения; В качестве показателя дополнительного роста или уменьшения используются показатели статистического анализа абсолютной величины одного процента дополнительного увеличения или уменьшения. Необходимость регулярного анализа рядов динамики экспорта поможет предотвратить проблемы, которые могут возникнуть в будущем.

Ключевые слова: динамика объемов экспорта, структура экспорта, международные экономические отношения, абсолютный дополнительный прирост или снижение, коэффициент или скорость роста или снижения.

EVALUATION OF INDICATORS OF EXPORT VOLUME DYNAMICS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*PhD Abdujalilova Bibisora Bakhodir kizi
Institute of personnel training and statistical
research of the Statistical Agency under the
President of the Republic of Uzbekistan*

Abstract. *The research, based on the analysis of foreign economic activity indicators and the collected data, evaluated the dynamics of export volumes of our Republic in 2010-2023. Used in the analysis of dynamics series: absolute increase or decrease, rate of increase or decrease; the rate of additional growth or decrease used statistical analysis indicators of the absolute value of one percent additional increase or decrease. The need to regularly analyze the export dynamics series will help prevent problems that may arise in the future.*

Keywords: *export volume dynamics, export structure, international economic relations, absolute additional growth or decrease, growth or decrease coefficient, or speed.*

Kirish.

Bugungi shiddatli global raqobat sharoitida davlatlar o'zlarining iqtisodiy hayotiyligi va o'sishini saqlab qolish uchun xalqaro savdo bozorida o'z mamlakatlarining obro'sini oshirishga intilmoqda. Iqtisodiyotning globallashuvi jahon bozorlaridagi vaziyat nafaqat butun mamlakat iqtisodiyotiga, balki asosiy mintaqalarga ham ta'sir ko'rsatishiga olib keladi (Vyacheslav Somov, & other, 2019).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi PQ-4707 sonli Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida qaroriga muvofiq, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga e'tibor qaratgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Eksportni rag'batlantirish agentligi tashkil etilib, eksport hajmini oshirish uchun eksport qiluvchi korxonalariga moliyaviy ko'mak berish mexanizmlari yaratilgan (Qaror, 2020).

Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi PQ-4337-son "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "reeksport" mahsulotlarini bojxona rejimida olib chiqishda tashish xarajatlarini 50 foizigacha miqdorda kamaytirish, subsidiyalar taqdim etish, mahsulotlarni avtomobil va havo transportida tashishga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan eksport operatsiyalari bo'yicha olib o'tilayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan joriy qilingan barcha turdagi majburiy to'lovlar va ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorligi mavjudligini tekshirish amaliyoti ma'lum muddatgacha bekor qilingan (Qaror, 2019).

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 7 288 taga yetdi va ular tomonidan 16 169,6 mln. AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2022 yilga nisbatan 4,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi (stat.uz axborotnomasi).

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro savdoda tovarlarning eksport tarkibi fan-texnika revolyutsiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning

hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xom-ashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi. Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi (G'afurov, Mamaraximov va boshq., 2019).

Eksport va importni diversifikatsiya qilish, uning tarkibini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz eksportining tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi (Vaxabov, Tadjibayeva, Xajibakiev, 2015).

Eksport – bu tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. Eksportning iqtisodiy samaradorligi shu bilan aniqlanadiki, mazkur mamlakat ishlab chiqarishning milliy xarajatlari jahon xarajatlaridan past bo'lgan mahsulotlarni chetga chiqaradi. Bunda eksportda olinadigan yutuq hajmi mazkur tovar milliy va jahon narxlarining nisbatiga, mazkur tovarning xalqaro aylanmasida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mehnat unumdorligiga bog'liq.

Eksport bozorga kirishga nazariy e'tibordan tashqari, bizning empirik yondashuvimiz joriy eksportchilarni yangi yo'nalishlarga yoki yo'nalishlar ichida yangi mijozlar segmentlariga kengaytirishga ham imkon beradi (Fajgelbaum, 2020). Eksport hajmi xalqaro savdoda asosiy o'lchov sifatida firmalar tomonidan tashqi bozorlarga eksport qilinadigan mahsulotlar qiymatini bildiradi. Eksport hajmining taqsimlanishini tushunish, olimlar va siyosatchilar uchun bozor dinamikasini, firma raqobatbardoshligini va eksport sektori tuzilishini baholash uchun zarurdir (Fajgelbaum, 2020). Eksportdan ko'proq daromad olish va kirish tannarxiga nisbatan yuqori firma unumdorligi kirishni tezlashtiradi va shu bilan ma'lum bir davrlarda eksport bozorida ishtirok etish chastotasini oshiradi (Huang, Meng, & other, 2024).

Santos va boshqalar (2023) eksport ko'rsatkichlari turli mualliflar tomonidan keng miqyosda o'rganilganligini va uzoq vaqtdan beri Xalqaro savdoda asosiy masala bo'lib kelganligini ta'kidladi. Lages (2000) eksport ko'rsatkichlarini baholash qiyin vazifa ekanligi va u hali ham rivojlanmaganligini izohladi. U eksport samaradorligi uchun konseptual asosni taklif qildi va mahsulotni ilgari surish, tarqatish, moslashtirish va mahsulot narxi eksport ko'rsatkichlarini oshirishning asosiy omillari ekanligini ta'kidladi. Gertner va boshqalar (2007) Moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarga erishish uchun eksport ko'rsatkichlari ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lsa-da, siyosatchilar, menejerlar va olimlar so'nggi 40 yil ichida eksport ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilishdi. Keyinchalik, turli determinantlar orqali eksport ko'rsatkichlarini empirik tekshirish zarurligini tavsiya qildi. Shunday qilib, ma'lum bir tovarga nisbatan eksport ko'rsatkichlarining mahsulotga xos dinamikasini tushunish va uning asosiy hal qiluvchi omillarini aniqlash muhimdir (Mukherji, 2012).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiya sifatida dinamika qatorlarining tahlil qilish ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil jadval, grafik, diagrammalar orqali keng yoritildi va yig'ilgan ma'lumotlar asosida Respublikamizning 2010-2023 yillardagi eksport hajmi ko'rsatkichlari dinamikasini baholaymiz. Buning uchun dinamika qatorlarini tahlil qilishda qo'llaniladigan statistik tahlil ko'rsatkichlaridan foydalanamiz: mutlaq qo'shimcha o'sish (yoki kamayish); o'sish (yoki kamayish) koeffitsiyenti yoki sur'ati; qo'shimcha o'sish (yoki kamayish) koeffitsiyenti yoki sur'ati (foizda); bir foizli qo'shimcha o'sishning (yoki kamayishning) mutlaq qiymati. Agar bir xil davr bir necha yillar davomida taqqoslash uchun asos bo'lib xizmat qilsa, u holda o'sish bazali deb ataladi, ya'ni bazisli qatorning barcha hadlari bazis deb qabul qilingan had bilan taqqoslanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dinamika qatorlarini tahlil qilish jarayonida bir qator ko'rsatkichlar hisoblanadi:

1. Mutlaq qo'shimcha o'sish yoki kamayish — har qaysi keyingi davr darajasidan boshlang'ich yoki o'zidan oldingi davr darajasini ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

$$\begin{aligned}\Delta Y_{zanjirli} &= Y_i - Y_{i-1} \\ \Delta Y_{bazisli} &= Y_i - Y_{i_0}\end{aligned}$$

Bu yerda: Y_0 — bazis; Y_i — taqqoslanuvchi had; Y_{i-1} — taqqoslanuvchi haddan oldin keluvchi taqqoslanadigan had.

2. O'sish yoki kamayish koeffitsiyenti yoki sur'ati; har qaysi keyingi davr darajasi boshlang'ich yoki o'zidan oldingi davr darajasiga nisbatan qancha marotaba katta yoki kichik ekanligini yoki qancha foiz tashkil etishini ko'rsatadi.

$$\begin{aligned}K_{zanjirli} &= \frac{Y_i}{Y_{i-1}}; & T_{zanjirli} &= \frac{Y_i * 100}{Y_{i-1}}; \\ K_{bazisli} &= \frac{Y_i}{Y_0}; & T_{bazisli} &= \frac{Y_i * 100}{Y_0}.\end{aligned}$$

3. Qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'ati (D) ham ikki usulda aniqlanishi mumkin. Birinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan boshlang'ich davr darajasi ayirilib, 100 ga ko'paytiriladi va boshlang'ich davr darajasiga bo'linadi.

$$\Delta_{i/i_0} = \frac{(Y_i - Y_0)}{Y_0} * 100$$

Ikkinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan oldingi davr darajasi ayirilib, 100 ga ko'paytiriladi va o'zidan oldingi yil darajasiga bo'linadi.

$$T_{i/i-1} = \frac{Y_i - Y_{i-1}}{Y_{i-1}} * 100$$

1% qo'shimcha o'sish (kamayish)ning mutlaq qiymati – mutlaq qo'shimcha o'sish qiymati zanjirsimon qo'shimcha o'sish sur'atiga bo'linadi (Soatov, Nabiev, 2011).


$$A = \frac{\Delta_{i/i-1}}{\Delta T_{i/i-1}} = 0,01 * Y_{i-1}$$

O'zbekiston Respublikasi eksport hajmining 2010-2023 yillardagi zanjirli va bazisli o'zgarishi ko'rsatkichlarini yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarga asosan, tadqiqot davomida, statistik tahlil ko'rsatkichlari formulalari hamda 1-jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda mutlaq o'sish (yoki kamayish); o'sish (yoki kamayish) sur'ati; qo'shimcha o'sish (yoki kamayish) sur'ati; bir foizli qo'shimcha o'sish (yoki kamayish)ni mutlaq mohiyati ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi. 1-jadvalda keltirilgan bazisli usul hisoblash natijalari tahliliga ko'ra, 2011-2023 yillar oralig'ida Respublika eksport hajmi bazis davr (2010 yil)ga nisbatan o'zgarish sur'ati ko'rsatkichi o'sganligini ko'rsatmoqda (1-2-rasmlar).

O'zbekiston Respublikasi eksport hajmining 2010-2023 yillardagi zanjirli va bazisli o'zgarishi ko'rsatkichlari

Yillar	Eksport hajmi mlrd. so'm	Mutlaq o'sish (yoki kamayish)		O'sish (yoki kamayish) sur'ati		Qo'shimcha o'sish (yoki kamayish) sur'ati, %	
		Bazisli $\Delta Y_{\text{bazisli}} = Y_i - Y_{i_0}$	Zanjirli $\Delta Y_{\text{zanjirli}} = Y_i - Y_{i-1}$	Bazisli $T_{\text{bazisli}} = \frac{Y_i * 100}{Y_0}$	Zanjirli $T_{\text{zanjirli}} = \frac{Y_i * 100}{Y_{i-1}}$	Bazisli $K_b = \frac{y_1}{y_0}$	Zanjirli $K_b = \frac{y_1}{y_{i-1}}$
2010	11687,90						
2011	13248,80	1560,9	1560,9	113,4	113,4	13,4	13,4
2012	11243,20	-444,7	-2005,6	96,2	84,9	-3,8	-15,1
2013	11379,90	-308,0	136,7	97,4	101,2	-2,6	1,2
2014	10515,50	-1172,4	-864,4	90,0	92,4	-10,0	-7,6
2015	9446,30	-2241,6	-1069,2	80,8	89,8	-19,2	-10,2
2016	8974,00	-2713,9	-472,3	76,8	95,0	-23,2	-5,0
2017	10079,20	-1608,7	1105,2	86,2	112,3	-13,8	12,3
2018	10920,70	-767,2	841,5	93,4	108,3	-6,6	8,3
2019	14023,80	2335,9	3103,1	120,0	128,4	20,0	28,4
2020	13097,30	1409,4	-926,5	112,1	93,4	12,1	-6,6
2021	14081,10	2393,2	983,8	120,5	107,5	20,5	7,5
2022	15275,90	3588	1194,8	130,7	108,5	30,7	8,5
2023	19229,10	7541,2	3953,2	164,5	125,9	64,5	25,9

Manba: muallif ishlanmasi.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasi eksport hajmining 2010-2023 yillardagi zanjirli mutlaq o'zgarish ko'rsatkichlari

Manba: Stat.uz.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi eksport hajmining 2010-2023 yillardagi bazisli mutloq o'zgarish ko'rsatkichlari


Manba: Stat.uz.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi eksport hajmining 2010-2023 yillardagi o'zgarish sur'atlari

Manba: Stat.uz.

2023 yil uchun zanjirli o'zgarish sur'ati, 2023 yilda eksport hajmini 2022 yil hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Demak, tegishli davr uchun zanjirli usulda aniqlangan o'zgarish sur'ati 125,9 % (1,26 koeffitsiyent)ni tashkil etadi. 2022 yil uchun bazisli o'zgarish sur'ati tovarlar eksporti 2010 yildagi (bazis davrga) respublika eksport hajmi nisbati 130,7 % (1,4 koeffitsiyent)ni, 2023 yil uchun bazisli o'zgarish sur'ati esa 164,5 % (1,6 koeffitsiyent)ni tashkil etdi (3-rasm).



4-rasm. O'zbekiston Respublikasi eksport hajmining 2010-2023 yillardagi qo'shimcha o'zgarish sur'atlari

Manba: Stat.uz

2023 yildagi eksport hajmining qo'shimcha o'zgarish sur'ati bazis davr uchun, 2011-yilga nisbatan 51% ga va zanjirli davr uchun 12,5% ga o'zgargan. Tahlil qilinayotgan davrdagi eksport hajmi dinamikasini baholashda bir foiz qo'shimcha o'zgarish ko'rsatkichi mutlaq o'zgarishni, qo'shimcha o'zgarish sur'atiga nisbati bilan baholandi (4-rasm).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi XSST bo'yicha eksport tarkibi (yanvar-mart)

Tovar tarkibi	Hajmi mln.AQSh dollari	O'sish sur'ati %da	Umumiy hajmiga nisbatan %da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1777,6	109	7,3
Ichimliklar va tamaki	123	110,7	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	324,9	82,5	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	940,6	77,4	3,9
Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	14,2	66,9	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1314,4	100,5	5,4
Sanoat tovarlari	4058,7	92,6	16,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1305,2	134	5,3
Turli xil tayyor buyumlar	1195,6	108,1	4,9
Boshqa tovarlar	8192,6	198,3	33,5
Nomonetar oltin	8153,8	198,4	33,4
Xizmatlar	5179,7	116,2	21,2

O'zbekiston Respublikasining Eksport tarkibida tovarlar ulushi sanoat tovarlari bo'yicha 16,6 % ga, oziq- ovqat mahsulotlari 7,3 %ga xizmatlar esa 21,2 % ga teng bo'lgan. Mineral yoqilg'ilarning umumiy hajmi yanvar-mart oylarida 940,6 mln.AQSh dollarga yetgan (2- Jadval).


3-jadval

O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksporti hajmi va o'sish sur'atlari (yanvar-dekabr holatiga)

Davlatlar	Million.AQSh dollari		O'sish sur'ati %da		O'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	3151,1	3307,6	150,9	105	1	1
XXR	2632	2461,8	104,1	93,5	2	2
Qozog'iston	1407,5	1372,5	119,4	97,5	4	3
Turkiya	16433,5	1248,5	97,1	76	3	4
Afg'oniston	756,3	856,7	113,3	113,3	6	5
Qirg'iz Respublikasi	982,5	631,5	124,1	64,5	5	6
Tojikiston	522,1	605	104	115,9	7	7
Fransiya	72,6	392,1	3,4m	5,4m.	22	8
Pokiston	185,2	269,1	142,3	145,3	10	9
BAA	122,9	261,7	2,2m	2,1m	16	10
Eron	139,8	180,6	79	129,2	11	11
Turkmaniston	197	171,2	102,7	86,9	9	12
AQSh	124,5	155,4	2,1m	124,8	15	13
Buyuk Britaniya	114,3	142,1	143,6	124,3	17	14
Litva	94,2	133,4	141,2	141,6	20	15
Ozarbayjon	133,7	131,6	176	98,4	13	16
Belarus	128,8	119	2,2m.	92,4	14	17
Hindiston	36,5	108	122	2,9m	31	18
Latviya	106,2	100,5	192,3	94,7	18	19
Polsha	137,9	88,9	155,5	64,5	12	20

Manba: Stat.uz axborotnomasi, 2023.

O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkorlaridan Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya kabi davlatlar bo'lgan. Rossiya bilan amalga oshirilgan eksport hajmi 2022 yilga nisbatan, 2023 yilda 156,5 mln.AQSH dollarga oshgan (3-jadval).



5-rasm. MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi (yanvar-dekabr, mln.AQSh dollar, ulushi %da)

Manba: Stat.uz

2023 yil yanvar-dekabr oylarida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha O'zbekistonning asosiy hamkori MDH davlatlari bo'lgan. 2023-yildagi umumiy eksport hajmi ulushi 33,1 %ni tashkil etgan (5-rasm).

Xulosa va takliflar.

Keltirilgan bazisli usul hisoblash natijalari tahliliga ko'ra, 2011-2023 yillar oralig'ida Respublika eksport hajmi bazis davr (2010 yil)ga nisbatan o'zgarish sur'ati ko'rsatkichi o'sganligini ko'rsatmoqda. 2010-2011 yillarda eksport hajmi sezilarli darajada oshdi, bu iqtisodiy rivojlanish va bozor talabining kuchayishini ko'rsatadi. 2011-2012 yillarda esa eksportning kamayishi iqtisodiy muammolar yoki global bozor sharoitlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Eksportning o'zgarishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'sish davrida investitsiyalar va ishlab chiqarish faoliyati kuchaygan bo'lsa, pasayish davrida bu jarayonlar to'xtashi yoki sekinlashishi mumkin. Eksport dinamikasini muntazam ravishda tahlil qilish zarurati kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olishga yordam beradi. Eksport mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarni izlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Eksportbop mahsulotlar sifatini yaxshilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish lozim. Davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish uchun qulay iqtisodiy siyosat, soliq imtiyozlari va moliyaviy yordam ko'rsatish kerak. Bozor talablarini o'rganish va tahlil qilish orqali eksport strategiyalarini yangilash, eksport dinamikasini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:

Alok Kumar Yadav, (2024) Utpal Chatto padhyay, *Determinants of India's cotton export performance: An empirical analysis*, *International Economics*, Volume 179, 100521, ISSN 2110-7017, <https://doi.org/10.1016/j.inteco.2024.100521>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2110701724000441>).

Axborotnoma (2023) O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati, Tashqi iqtisodiy faoliyat axborotnomasi.

G'afurov U.V., Mamaraximov B.E., Sharipov Q.B., Otoboyev F.O. (2019) *Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar. — O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – T.: «YANGI NASHR», -315 bet. ISBN: 978-9943-05-691-6;*

Gertner, R.K., Gertner, D., Guthery, D., (2007). *The implications of export performance measurement for the significance of the determinants of export performance: an empirical investigation of Brazilian firms*. *J. Global Market*. 20 (1), 21–38. https://doi.org/10.1300/J042v20n01_03.

Huda Al Beshar (2021) *Trade Flow and Nation Brand Distance: A Structural Gravity Model Approach* A thesis submitted to the Faculty of Business and Law in fulfilment of the requirements for the degree of doctor of philosophy in business management at The British University in Dubai April.

Jinchao Huang, Shuang Meng, Jiajie Yu, Xing Zhang, (2024) *Distribution of export size, Pareto exponent and financial crisis*, *Research in International Business and Finance*, Volume 71, 2024, 102465, ISSN 0275-5319 <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2024.102465>.

Lages, L.F., (2000). *A conceptual framework of the determinants of export perform.*

Mukherjee, S., Mukherjee, S., (2012). *Overview of India' export performance: Trends and drivers*. IIM Bangalore Research Paper 363. <https://doi.org/10.2139/ssrn.2116269>.

Pablo D Fajgelbaum, (2020) *Labour Market Frictions, Firm Growth, and International Trade*, *The Review of Economic Studies*, Volume 87, Issue 3, May, Pages 1213–1260, <https://doi.org/10.1093/restud/rdz063>.

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 24.05.2019y. PQ-4337-son "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 07.05.2020 y. PQ-4707 sonli "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida qarori.

Santos, F., Dias, A., Pereira, L., Costa, R., Gonçaves, R., (2023). Exploring the determinants of wine export performance. Analyzing the importance of noneconomic performance. *Academia. Rev. Latinoam. Adm.* 36 (1), 23–38. <https://doi.org/10.1108/ARLA-07-2022-0148>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0275531924002587>)

Soatov N.M., Nabiev H.G., Nabiev D.H., Tillaxo'jayeva G.N. (2011) "Statistika" darslik – Toshkent.

Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. (2015) "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar darslik", Toshkent.

Vyacheslav Leonidovich Somov, Mikhail Nikolaevich Tolmachyov, Aleksander Pavlovich Tsyrip; (2019) Вестник СГСЭУ. № 2 (76); Статистический Анализ Влияния Внешней Торговли На Экономику Региона